

**TEZIS MAVZUSI: MINTAQALARDA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Muallif: Abdullayev Umidjon G'afurovich

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot
fakulteti, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası*

Kirish

Tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiyotning strategik yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Har bir mintaqaning o'ziga xos resurslari, geografik joylashuvi va mehnat salohiyati asosida tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, yaqin istiqbolda bu sohani har bir hududda ustuvor rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik har bir hududning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligi taminlanadi. Tadbirkorlikda nafaqat bo'sh ish o'rinlarini yaratiladi, mintaqaviy infratuzilmani yaxshilaydi, bozor iqtisodiyotiga mos infratuzilmani shakllantiradi. Mahalliy byudjetda tushumlarni oshiradi va ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bois mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni o'ziga xos omillar, shart sharoitlar va muammolar bilan bog'liq.

1. Rivojlanish istiqbollariga ta'sir etuvchi omillar:

Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlarning salohiyatini ham o'ziga yarasha o'ri bor. Mehnat bozorini sifatli kadrlar bilan ta'minlanganligi tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan oliy o'quv yurtlari, kasb hunar maktablari va o'quv markazlarining mavjudligi tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kadrlar tayyorlash: Kasbiy ta'lim va amaliy ko'nikmalarga ega yosh kadrlar – mintaqaviy tadbirkorlikni yangilovchi kuchdir.

2. Davlat strategiyalarida istiqbollar:

“Har bir oila – tadbirkor” va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari orqali tadbirkorlikning ijtimoiy bazasi kengaymoqda.



Erkin iqtisodiy zonalar va industrial parklar orqali mintaqalarda sarmoyadorlik muhitini yaxshilash choralari ko‘rilmoqda.

Innovatsion klasterlar tashkil etish mintaqalarda ko‘p tarmoqli iqtisodiy muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Mintaqaviy o‘ziga xosliklar asosida rivojlanish yo‘nalishlari:

Har bir viloyat yoki tuman o‘ziga xos ixtisoslashuvga ega. Bu esa tadbirkorlik subyektlariga aniq yo‘nalishni tanlashda yordam beradi. Masalan, Buxoro va Xorazmda turizm va hunarmandchilik yo‘nalishlari rivojlangan bo‘lsa Andijon va Farg‘onada avtomobilsozlik va to‘qimachilik rivojlangan. Turizm salohiyati yuqori hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasi va mehmonxona biznesini rivojlantirish.

Mintaqaviy tadbirkorlikning xususiyatlari resurs salohiyatiga ham bog‘liq. Har bir hudud o‘zining tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslariga ega. Masalan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hududlarda agrar tadbirkorlik faol bo‘lsa, sanoat rivojlangan mintaqalarda qayta ishlash va ishlab chiqarish yo‘nalishlari rivojlangan bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mintaqalarda agro-biznes klasterlarini yaratish. Ishlab chiqarish resurslari mavjud bo‘lgan hududlarda kichik sanoat korxonalarini tashkil etish.

Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilma muhim rol o‘ynaydi, agar infratuzilma rivojlanmagan bo‘lsa tadbirkorlikni rivojlanishiga kata to‘siq bo‘ladi. Infratuzilma rivojlangan bo‘lsa, yollar, elektr energiyasi, internet aloqasi, logistika kabi infratuzilma imkoniyatlari tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Aholi yashash joylarida logistika va transport tizimi Raqamlashtirish va texnologiyalar: Raqamli infratuzilmaning kengayishi, elektron tijorat va onlayn xizmatlarning rivojlanishi tadbirkorlik salohiyatini yanada oshiradi.

Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlanishida davlat tomonidan taqdim etilayotgan grantlar, imtiyozli kreditlar, subsidiya va soliq yengilliklari muhim o‘rin tutadi. Bunga misol qilib “Yoshlar daftari “ , “Ayollar daftari” , “temir daftar” kabi ijtimoiy himoya dasturlari doirasida ko‘plab fuqarolar tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.



Mintaqarda tadbirkorlikni rivojlantirishda o'ziga xos muammolar mavjud:

- Kredit resurslarining cheklanganligi
- Tadbirkorlik madaniyatining pastligi
- Bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi
- Mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga chiqarishdagi qitinchiliklar

Bunday muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- Tadbirkorlik bo'yicha treniglar, seminar va maslahat xizmatlarini kengaytirish
- Raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali masofaviy biznes yuritish imkoniyatlarini kengaytirish
- Eksportga yo'naltirilgan korxonalarni qo'llab quvvatlash.

Xulosa

Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari – bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki jamiyatning har tomonlama taraqqiy etish kafolatidir. Davlat siyosatining uzviy tarkibiy qismi sifatida bu yo'nalishda tizimli yondashuvlar, investitsion muhitni yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish va hududiy o'ziga xosliklarni hisobga olish zarur. Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlariga tayangan holda tadbirkorlikni rivojlantirish – mamlakat iqtisodiy strategiyasining asosi bo'lishi lozim. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash faqatgina iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan aniq va tizimli yondashuvlar tadbirkorlik muhitining mustahkamlanishiga va raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etilishiga xizmat qiladi.

Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish – bu nafaqat iqtisodiy, balkiki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning ham asosiy ham asosiy yo'nalishidir. Har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlarini to'g'ri tahlil qilish va ulardan oqilona foydalanish orqali samarali tadbirkorlik muhitini shakllantirish mumkin.



Davlat siyosati, mahalliy boshqaruv organlari va jamiyatning birgalikda harakati natijasida mintaqaviy tadbirkorlik yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “O'zbekiston respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”. – **strategiya. uz**
2. Razzakov D.Y. “O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy rivojlanishi”.- “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2022, № 4.
3. Tursunov.B.O “Hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari”. “Iqtisodiy tahlil” jurnali, 2023, №2.
4. G'ulomov.S.S., To'laganov.O.S. “Tadbirkorlik asoslari”.-Toshkent : Iqtisod-moliya, 2022